

**“INFORMATIKA FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH”**

**Atamuratova Muslima Xursandovna**

Surxondaryo viloyati Denov tumani

32- maktab Informatika fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy ta`lim berishda ta`lim muassasalarda wedexinformatika va axborot texnologiyalarini o`qitishda metodik qo`llanmalar va interaktiv yondashuv haqida fikr mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** texnologiya, axborot, metod,

**Abstract:** In this article, there are opinions about methodical manuals and interactive approach in teaching informatics and information technologies in educational institutions in modern education.

**Key words:** technology, information, method

**Аннотация:** В данной статье представлены мнения о методических пособиях и интерактивном подходе в обучении информатике и информационным технологиям в общеобразовательных учреждениях в современном образовании.

**Ключевые слова:** технология, информация, метод,

Bo’lajak informatika o’qituvchisi o’sib kelayotgan avlodning umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o’qitiladigan «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari», «Informatika» va «Axborot texnologiyalari» fanlarining ahamiyatini, ularning mazmunini ajratish tamoyillarini, shuningdek, ularning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushunishi zarur.“Informatika o‘qitish metodikasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ko‘p rejali topshiriqlarni bajarishi nazarda tutiladi. Amaliy mashg‘ulotni bajarish jarayonida

## PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION

o`quvchilar avval egallagan nazariy bilimlaridan foydalanadilar. Amaliy mashg'ulotlar o`quvchining nazariy bilimlari qanchalik o`zlashtirganligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotlarda o`quvchilar mavzularga oid ma'lumotlami tahlil qiladilar va mavzuning amaliy jihatlari bo'yicha munozaralar olib borish orqali bilimlarini yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida o`quvchilar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali o`quvchilar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar hamda didaktik materiallar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.“Informatika o'qitish metodikasi” fani bo'yicha talabalar quyidagi bilimlar bilan quollangan bo'lishi zarur:

- informatika va axborot texnologiyalari haqida tushunchalar;
- informatika va axborot texnologiyalarining har bir inson hayotidagi va jamiyatning rivojidagi roli;
- informatikaning texnik va dasturiy vositalarining mohiyati va didaktik imkoniyatlari;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalari va ularning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llash.«Informatika» fan va o'quv pryedmyeti sifatida. Informatika o'quv predmyeti sifatida informatika fani va uning rivoji bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fani birinchi navbatda informatika fanining metodologiyasiga asoslanadi. O'zining xulosalarida u ta'lim va tarbiyaning umumiyl tamoyillariga tayanadi. Ma'lumki, ushbu tamoyillar pedagogika va didaktika tomonidan ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, «Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish nazariyasi va metodikasi» fani fiziologiya va psixologiya fanlari tomonidan qabul kilingan qonuniyatlardan ham bevosita foydalanadi. Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan informatikaning fan sifatida o'ziga xosligi, uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyatidan, hozirgi jamiyat hayotidagi

## PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION

ahamiyatidan kelib chiqqan holda «Informatika» fanini o'qitishning maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- o'quvchilarda kompyutyer savodxonligini shakllantirish;
- o'quvchilarda axborotga ishlov byerish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli o'zlashtirib olishlarini ta'minlash;
- o'quvchilarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahmiyatini, jamiyatning rivojida yangi axborot va kommunikatsion texnologiyalarning ahmiyatini ochib berish;
- kompyuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.O'rta ta'limda informatika va axborot texnologiyalari o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy axborot texnologiya vositalari bilan ishlash malakalari, mustaqil, mantiqiy va algoritmik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat va olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishga o'rgatishdan iborat.

Bugungi kunda umumta'lif maktablarida informatika fani asosiy fanlar sirasiga kiradi. Boisi, hozirgi axborotlashgan zamonda kompyuter texnologiyasini biladigan, turli dasturlar bilan ishlay oladigan kadrlarga bo'lgan ehtiyoj katta. Shuning uchun ham maktablarda informatika o'qituvchilari darslarni qiziqarli va tushunarli qilib tashkil etishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Informatika darslarida o'yinli texnologiyalardan foydalanishning ahmiyati katta. O'yinli texnologiyaning asosiy talablarini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi.

Informatika darslarida o'yin texnologiyalarini qo'llashning bir nechta samarali tomonlarini olimlar quyidagicha tahlil etishgan, yani mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga yondashadi. Informatika darslarida o'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga

# PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION

yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi, ular o'z navbatida quyidagi parametrlarni qamrab oladi.

- ❖ Maftunkorlik
- ❖ Kommunikativlik
- ❖ O'z imkoniyatlarini amalga oshirish
- ❖ Davolovchilik
- ❖ Tashxis
- ❖ Millatlararo muloqat
- ❖ Ijtimoiylashuv

O'yin texnologiyalarini darslarda qo'llanilishining afzallik taraflari shuni ko'rsatadiki, o'quvchi yoshlarda avvalombor, har bir qo'yilgan mavzuni chuqr tahlil etib keyin davom ettirishi shakllantiriladi

Informatika darslarida tadbirkorlik o'yinlaridan foydalanish, yangi texnologiya sifatida mohiyati quyidagilardan iborat bo'ladi.

- Ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materiali mazmunining izchilligi.
- O'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish.
- O'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni to'ldirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish.
- O'yin olib boruvchi o'qituvchining bilimdonligi.

O'yin texnologiyalarini darslarga qo'llashning yana bir nechta afzallik taraflari mavjud bo'lib, bunda o'quvchilarining berilayotgan axborotlarni qanday ko'rinishda anig'lab etishlarini kuzatish mumkin, buni qo'yidagi misol orqali ko'rib o'tishimiz mumkin. Masalan: O'quvchi kompyuter bilan muloqat qilishdan oldin muloqat qilish qonun qoidalarini bilishi kerak bo'ladi.

## PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION

1. Monitor tomonidan ishlab chiqarilgan elektromagnit nurlanish inson tanasiga ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun zararli maydonni zararsizlantirish uchun ehtiyyot bo'lish va ba'zi choralarini ko'rish kerak.
2. Agar kompyuterdan foydalanmasangiz, monitorni va tizim blokini uzoq vaqt yoqmang. Bu birinchi qarashda noqulay bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu tavsiyani e'tiborsiz qoldirmang, chunki mos kelmaslik narxi juda yuqori bo'lishi mumkin;
3. Kompyuterni xonaning burchagiga yoki u ishlamaydiganlarning yonida yoki orqasida bo'lmasligi uchun joylashtiring. Monitoring yon va orqa tarafidan chiqadigan elektromagnit nurlanish (bu joylarda uning darajasi eng yuqori) foydalanuvchi va boshqalarning sog'lig'iga zarar yetkazmasligi uchun zarurdir.
4. Ishlash paytida maxsus himoya ekranidan foydalaning, bu kompyuter ekranidan chiqadigan elektromagnit maydonning faolligini sezilarli darajada kamaytiradi;
5. Monitorni o'zingizdan uzoqroq joyda joylashtiring;

O'rta ta'limda informatika va axborot texnologiyalari ta'limining asosiy vazifalari:

o'quvchilarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularni amaliyotda qo'llash haqida bilimlar berish;

kompyuterda masalalar yechish texnologiyalari va asosiy bosqichlarini ketmакetlikda to'g'ri bajara olish;

algoritmik tuzilmalarni, algoritmlash va dasturlash asoslari haqida bilim berish;

kompyuterning dasturiy ta'minoti va ularning imkoniyatlarini ajrata bilish hamda amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish;

o'quvchilarni aqliy rivojlantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini o'rgatib borish orqali ularda umuminsoniy qadriyatlarga rioya etishni

## **PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION**

rivojlantirishga qaratilgan va ta’lim- tarbiya olishning keyingi bosqichlarida davom ettirishlari uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

A.Abduqodirov, A.Xaitov, R.Shodiev Axborot texnologiyalari Akademik lisey va kasb – hunar kolledjlar uchun darslik. – T.: O’zbekiston, 2001 y.

M.Aripov va boshqalar Informatika va informasion texnologiyalar. Oliy o’quv yurti talabalari uchun darslik T. 2005 y.

A.Axmedov, N.Tayloqov Informatika. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – T.: O’zbekiston, 2001. - 272 b.

U.Yu.Yuldashev, R.R.Boqiev, F.M.Zokirova. Informatika. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik T, 2002 y.

T.X.Xolmatov. Amaliy matematika, dasturlash va kompyuterning dasturiy ta’minoti. – T.: 2000